

---

Internet do'koni afzalliklariga bag'ishlangan seminar uchrashuvi bo'lib o'tdi O'zbekiston tuman hokimligida Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari A.Mirzayev hamda "Buvayda Network" MCHJ ta'asischisi Alisher Ergashev boshchiligida tumandagi tadbirkorlar va ishlab chiqaruvchilar ishtirokida seminar uchrashuvi o'tkazildi.

Uchrashuvda hozirgi kunda test rejimida faoliyat ko'rsatayotgan "NetWorkShop" Internet do'koni platformasining tadbirkorlar va ishlab chiqaruvchilar uchun ko'plab qulayliklari, afzalligi va foydali jihatlari bo'yicha keng tushuntirishlar berildi.



Shuningdek, ushbu onlayn platforma orqali mahalliy hunarmand va tadbirkorlar va ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar uchun qisqa muddatda dunyo bozoriga kirib borish va ishonchli xaridorlar topish imkoniyatlari mavjudligi qayd etildi.

Seminar davomida tadbirkorlar va ishlab chiqaruvchilarni qiziqtirgan savollar va masalalarga "Buvayda Network" MCHJ ta'asischisi hamda tuman hokimligi mas'ul o'rinbosari, tegishli tashkilot hamda tijorat banklari rahbarlari tomonidan javoblar berildi.



2023-03-02 10:11:20